

ISSN 0000-0000

# Belarus-O'zbek ILMIY-METODIK JURNAL

---

Белорусско-Узбекский научно-методический журнал  
Belarusian-Uzbek scientific and methodological journal

---

---

## Muassis:

Belorus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik  
kvalifikatsiyalar instituti

## 2022

## 2-son

DOI: <https://www.doi.org/10.18411/doi-code-2022.052>

Jurnal 2021-yil iyul oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2021-yil 3-sentabrda ro'yxatga olinib, 1157-raqamli guvohnoma berilgan.

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal  
Международный научно-методический журнал  
International scientific and methodical journal

TOSHKENT

<b>Р. ДЖУРАЕВ</b> Инновационные формы и проблемы конкуренции в системе подготовки специалистов...	4
<b>G. MUXAMEDOV, J. USAROV</b> Aralash ta'lim klasteri sharoitida kasbiy mobillikni ta'minlashning ijtimoiy omillari .....	10
<b>Х. ИБРАИМОВ</b> Профессиональные факторы и стресс: синдром эмоционального выгорания педагога.....	14
<b>Н. ЭГАМБЕРДИЕВА</b> Развитие мышления, познавательной активности и самостоятельности как важное условие подготовки учащихся к тестированию PISA.....	20
<b>Я. ИСМАДИЯРОВ, М. МАТНАЗАРОВА</b> Условия эффективности перспективного менеджмента в высшем образовательном учреждении .....	25
<b>Л. НАБИУЛИНА</b> Анализ интеграционных процессов в области образования в мире и их реализация в республике Узбекистан.....	30
<b>О. ABDUG'ANIYEV</b> O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	35
<b>F. KODIROVA, M. UMARALIYEVA</b> Oilada nogiron farzandlar uchun to'laqonli hayot tarzini yaratishda ota-onalar va mahalla mutasaddilarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.....	40
<b>S. ACHILOVA</b> Dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar nutqi ustida ishlashning samarali usullari va innovatsion texnologiyalari .....	46
<b>Д. МУСТАФОЕВА</b> Основы аксиологического подхода в педагогике.....	52
<b>М. PARPIYEVA</b> Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish .....	58
<b>С. РАХИММИРЗАЕВ</b> Сущность и понятие саморегуляции личности в психологической науке.....	63
<b>С.Т.ТУРФУНОВ, Д.Т. АКМАЛОВА, Д.Б.Тошпўлатова</b> Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda strukturaviy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari .....	70
<b>F. HUSANOV</b> Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish jarayonining ustuvor tamoyillari.....	74
<b>Р. АБДУРАХМАНОВА</b> Психологическое сопровождение в образовательных учреждениях: когнитивно-поведенческий подход в преодолении тревожности.....	78

<b>Е. АГЗАМОВА</b>	
<i>Психическая саморегуляция и ее роль в укреплении здоровья и профилактике заболеваний.....</i>	84
<b>Д. МАТКАРИМОВА</b>	
<i>Семья как основа формирования личных границ у ребенка.....</i>	90
<b>С. РАХИММИРЗАЕВ, Д. МАХАМАТОВА</b>	
<i>Психологические особенности детей старшего дошкольного возраста.....</i>	93
<b>Г. ГОЙИБНАЗАРОВА</b>	
<i>Геометрическое образование с позиций идей фузионизма.....</i>	100
<b>Э. ЮСУПОВА</b>	
<i>Методические аспекты изменения сознания студенческой молодежи узбекистана в процессе демократизации.....</i>	107
<b>Z. RO`ZIYEVA</b>	
<i>Boshlang`ich sinf o`qituvchilarida loyihalashtirish-tadqiqotchilik ko`nikmalarini aniqlash.....</i>	113
<b>B. NARZULLAYEVA</b>	
<i>Ko'p millatli oilada tolerantlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari.....</i>	116
<b>O. MUSURMANOVA, G. SOLIHOVA</b>	
<i>Nogiron bolalarni ijtimoyilashtirishning huquqiy-nazariy asoslari.....</i>	120
<b>Z. MAXQAMOVA</b>	
<i>Ayollarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning imkoniyatlari.....</i>	124
<b>X. KADIROVA</b>	
<i>Milliy mansublik va o'zlikni anglash darajasi.....</i>	127
<b>B. DJAMIYEV</b>	
<i>Ko'ppartiyaviylik tizimi jamiyatni demokrattlashtirish omili sifatida.....</i>	133
<b>Д. МАТКАРИМОВА</b>	
<i>Семья как основа формирования личных границ у ребенка .....</i>	140
<b>Г. ГУЛНОРА</b>	
<i>Геометрическое образование с позиций идей фузионизма.....</i>	145
<b>Ф. НАРЗИКУЛОВА</b>	
<i>Моделирование структуры профессионально-имиджевого потенциала современного учителя начального образования в процессе подготовки и разработки эмпирического исследования.....</i>	151

**Gafurdjan MUXAMEDOV,**

*Kimyo fanlar doktori, professor.*

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti rektori*

*Chirchiq, O`zbekiston*

**Jabbor USAROV**

*pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti dekani*

*Chirchiq, O`zbekiston*

## ARALASH TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA KASBIY MOBILLIKNI TA'MINLASHNING IJTIMOY OMILLARI

Maqolada aralash ta'lim klasteri muhitida bo'lajak pedagoglar kasbiy mobilligini ta'minlashning ijtimoiy omillari, uning mohiyati va imkoniyatlar haqida so'z yuritilib, ommalashib borayotgan aralash o'qitishning bugungi kundagi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri ekanligi, ta'lim-tarbiya hamda kasbiy faoliyat jarayoniga tez moslashuvchan (mobil)likni ta'minlash metodikalarini takomillashtirishning ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim klasteri, aralash ta'lim, axborot texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, mobillik.

В статье рассматриваются социальные факторы обеспечения профессиональной мобильности будущих педагогов в среде смешанного образовательного кластера, ее сущность и возможности.

**Ключевые слова:** образовательный кластер, смешанное образование, информационные технологии, инновационные технологии, мобильность.

The article deals with the social factors of ensuring professional mobility of future teachers in the environment of a mixed educational cluster, its essence and possibilities.

**Key words:** educational cluster, mixed education, information technologies, innovative technologies, mobility.

**B**ugungi globallashuv davridagi axborot oqimining muttasil o'sishi va yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlantirish sharoitida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash ta'lim tizimini qayta qurish zarurligini masalaning birinchi tomoni bo'lsa, masalaning ikkinchi tomoni ta'lim paradigmasining yangilanib borayotganligi, o'qituvchining vazifasi bilim beruvchi emas, bilim olishga yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Masala yechimining uchinchi omili, ta'lim sub'ektlari va ob'ektlarining o'zaro klaster tizimidir. Ushbu masalalar esa, davlat tomonidan ta'limga qo'yiladigan talablar asnosida va undan farqli o'laroq ijtimoiy buyurtmani bajarishda pedagogik ta'lim innovatsion klasterining tashkiliy-amaliy zaruratini asoslaydi [5]. Xususan, Respublikamiz ta'limini modernizatsiyalash sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligini rivojlantirishga va ta'limdanda yangi natijalariga erishishga yo'naltirilgan kompetentli yondashuv, aralash ta'limga bo'lajak mutaxassislarning mobilligini ta'minlash ustuvorlik kasb etmoqda.



Bugungi kompetentlik talabidagi ustuvor komponentlardan biri bo'lajak pedagoglarning mobilligi ya'ni, pedagogik-psixologik vaziyatga tez moslashuvchanlik komponentidir. Shu o'rinda mobil (moslashuvchan) kompetentlik deganda, talabalik davridagi ta'lim olish jarayonidagi moslashuvchanligi emas balki, butun kasbiy faoliyati davomidagi ijtimoiy, pedagogik-psixologik va texnologik holatlarga tayyorgarlik darajasi, sharoitga tez moslasha olishi hamda ta'lim oluvchilarga ham ushbu ko'nikmani shakllantirishi nazarda tutiladi.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini ta'minlash, ta'lim olish mobaynidagi bilim darajasi bilan birga ularning shaxsiy-kasbiy xususiyatlariga, emotsional barqarorligiga ham bog'liq bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshlikdagi ustunliklari nafaqat o'ziga xos bilimlarda, balki shaxsning yangi umumiy qobiliyatlari va xulq-atvor modellarida ham yoqqol namoyon bo'ladi [3]. Shu munosabat bilan, rivojlanishining hozirgi bosqichda oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifasi ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishdan iborat bo'lib, u tegishli konsepsiyani yaratishni taqozo etadi, u esa, o'z navbatida, ta'lim texnologiyalari, usullari va shakllarini rivojlantirish uchun asos bo'ladi, mobil mutaxassislar tayyorgarligining yuqori darajasi va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda o'quv fanlarni nazariy jihatdan o'rganish, undan kasbiy va kundalik ehtiyoj sifatida foydalana olish ya'ni, bo'lajak o'qituvchining kasbiy mobilligini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quv fanlarini bilish, tez o'zgaruvchan ta'lim kontentida professional faoliyatini namoyon qila olish, muvaffaqiyatga erishishi, pedagogik kompetentli mutaxassis bo'lib yetishishi o'ziga yarasha ma'lum qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Shunday qilib, pedagogika sohalari uchun o'qituvchi tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha ijtimoiy buyurtma mavjudligi haqida gapirishimiz mumkin. Uning mohiyati esa, talabning bilimlar hajmini oshirish emas, balki fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, pedagogik faoliyat sirlarini o'rganishga to'rtki berish, ularning mustaqil faoliyatida ijodiy va intellektual qobiliyatlarni ochib berish va ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Bu aralash ta'lim klasteri muhitida masofaviy ta'lim texnologiyasi (onlayn), kunduzgi ta'lim (o'qituvchi bilan an'anaviy) va Internet (mustaqil) ta'lim integratsiyasini qamrab oladi. Bunday model o'quv materialini o'rganish vaqtini, joyini, tezligi va usulini boshqarishga imkon beradi. Aralash ta'lim o'quv fanlarini o'qitishda an'anaviy usullar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini birlashtirishga imkon beradi.

Demak, aralash ta'lim texnologiyasi uchta asosiy tashkil etuvchidan iborat: masofaviy o'qitish (Distance Learning), auditoriyada o'qitish (Face-To-Face Learning) va Internet orqali o'qitish (Online Learning). Ushbu tizimning komponentlari doimiy o'zaro bog'liqlikda ishlaydi va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi lozim. O'quv fanlarini o'qitishda eng maqbul natijalarga erishish tashkiliy va tarkibiy jihatlarga bog'liq, chunki ta'lim jarayonining barcha elementlari o'zaro ta'sirlashishi va bir butunni tashkil qilishi kerak. Metodik jihatdan aralash ta'limni to'g'ri tashkil uchun pedagogning har qanday faoliyatga mobilligi talab etiladi.

Ushbu texnologiyaning afzalliklari orasida quyidagilar alohida ko'rsatib o'tilgan:

- aralash ta'lim virtual va bevosita muloqotni o'zida mujassam etgan bo'lib, ular doirasida munozaralar, muhokamalar tashkil etiladi, tajriba va amaliy ko'nikmalar almashinuvi amalga oshiriladi hamda o'quv materiallarining bir qismini onlayn texnologiyalar orqali mustaqil o'zlashtirib, auditoriyada ma'lum ko'nikmalar va malakalarni amalda sinab ko'rish uchun vaqtni tejash imkonini beradi;

- aralash ta'lim tanqidiy fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

- aralash ta'limda o'quv materiallari taqdimoti nafaqat bosma nashrlarda, balki

talabalarga o'quv fanni o'qitishda individual ish rejimini tanlashga imkon beradigan elektron shakllarda ham amalga oshiriladi;

- aralash ta'lim talabalarning elektron manbalardan mustaqil foydalanishini o'z ichiga oladi, bu esa o'qituvchining dars vaqtini ancha tejashga imkon beradi;

- aralash ta'lim - bu interaktiv usul bo'lib, u "o'qituvchi - talaba" va "talaba - talaba" ning o'z nuqtai nazarini ifoda etish, fikr almashish, shuningdek taqdim etilgan materiallarning mazmuniga ta'sir o'tkazish imkonini nazarda tutadi;

- aralash ta'limda talabalarning individual psixologik xususiyatlari hisobga olinadi, chunki har xil ish shakllari kombinatsiyasi talabalarda har xil temperamentni va materialni turlicha tezlikda o'zlashtirish va o'zlarini namoyon etish imkoniyatini beradi [7].

Binobarin, aralash ta'limning ahamiyati shundaki, u qat'iy dasturlash, vaqt, mazmun va texnologiyalardan foydalanishda cheklovlar bo'lmagan holda chiziqli bo'lmagan ta'lim modelini yaratishga imkon beradi. Bunda o'qituvchining avtoritar rahbarligi yo'q, uning asosiy vazifasi talabalar faoliyatini kuzatib borish va o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv amalga oshiriladigan o'quv faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratishdan iborat. O'qituvchi talaba shaxsini qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi, ular o'rtasidagi munosabatlar hamkorlik va tashabbuskorlik tamoyillariga asoslanadi [1]. Bu esa o'quv jarayonining mohiyatini tushunishga va uni mustaqil boshqarishga, shuningdek, yangi bilimlarni olish mexanizmlarini ochib berishga yordam beradigan mobillik omili sifatida shakllanishi kerak.

Aralash ta'lim klasteri zamonaviy ta'lim an'analari mos bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha talabalarning mustaqil individual ishi ulushining o'sishi tendensiyasi tufayli dolzarb masala va talabga aylanib bormoqda [2]. Bu talabalarning mustaqil ishlash strategiyasini shakllantirishga yordam beradi, auditoriyadan tashqari ta'lim trayektoriyasini tashkil etish uchun mas'uliyat hissini oshiradi, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi, chunki o'quv jarayonining bir qismi auditoriyadan tashqarida olib boriladi [4].

Shunday qilib, aralash ta'lim texnologiyasi konsepsiyasini, shuningdek, uning maqsadlari va ta'kidlangan afzalliklarini hisobga olgan holda, aytish mumkinki, ushbu o'qitish texnologiyasi o'quv fanlarini o'qitishni sifat jihatidan yangi samarali darajaga ko'tarishga imkon beruvchi o'quv va texnologik faoliyatga mobillashish qo'shimcha resurslarni jalb qilgan holda o'qitishni moslashuvchanlik asosda tashkil etishga imkon beradigan texnologiya, deb hisoblash mumkin.

Ta'lim-tarbiya hamda kasbiy faoliyat jarayoniga tez moslashuvchan (mobil)likni ta'minlash metodikalarini takomillashtirishning ahamiyati, o'quvchi-talabalar, kasb egalari ta'lim-tarbiya, kasbiy faoliyat, jamoa hamda turmush tarziga tez moslashuvchanlik (mobil) raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning asosiy omili ekanligi bilan izohlanadi. Shu ma'noda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri sharoitida bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning e'tibor qaratadigan, ilmiy yondashuv talab qiladigan qator omillari mavjud [6].

Birinchi omil - ijtimoiy-tarbiya mobiligi, unda maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarning (bog'cha xodimlariga, tengdoshlari va bog'cha sharoiti va h.k.larga) tez moslashishi nazarda tutiladi. Bu muammo bolalarning bog'chaga borish istagini oshirish, tarbiyachilar bir vaqtning o'zida guruhning motivatsion faoliyatini barqaror ushlab turish ko'nikmalariga yetarlicha ega emasligi va h.k.larni keltirib o'tish mumkin.

Ikkinchi omil- ta'limiy mobillik, unda o'quvchilarning maktabga (o'qituvchiga, sinfdoshlariga, fanlar va h.k.) tez moslashishni ko'zda tutadi. Bu holatdagi pedagogik vaziyat sifatida o'qituvchilarda o'quvchilar psixologik holatini inobatga olgan holda faoliyat olib borish,



emotsional intellektning yoshiga nisbatan bog'liq darajalarini aniqlash, maktab (litsey) o'quvchilarining pubertat davridagi inqirozlari kabilarni keltirish mumkin.

Uchinchi omil- akademik mobillik, unda oliy ta'lim muassasalariga (ta'limiy-faoliyat unversalligi, ilmiylik, qo'shimcha kasb va h.k) tez moslashishni inobatga olish zarur. Bu masalaning yechimi sifatida esa, talabalarning pedagogik-psixologik portretini aniqlash orqali kasbiy va ta'limiy faolligini aniqlash; talabalarning mobilligida "Ustoz-shogird" tamoyillarini amalga oshirish kabilarni keltirib o'tish mumkin.

To'rtinchi omil- kasbiy mobillik, unda kasbiy faoliyatga (mexnat jamoasiga, ta'lim oluvchilarga, mutaxassislik faoliyatiga, va h.k.) tez moslashish metodikalari ishlab chiqilishi lozim. Buning pedagogik ta'lim innovatsion klasteri sharoitida aralash ta'lim shaklini tashkil etish barobarida institutda metodik-innovatsion studiya tashkil etish, talabalarning o'z yo'nalishi bo'yicha maktab dasturlariga mos mavzularda videodarslarini tayyorlash, mobillashgan metodik trenajer xonalar tashkil etish kabi faoliyatlar samarali hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, aralash ta'lim klasteri sharoitida ham Davlat ta'lim standartlari talablarini, ham ijtimoiy talablarni bajarish imkoniyatlari bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini pedagogik ta'lim innovatsion klasteri sharoitida amalga oshirilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бехтерев, А. Н., Логинова А. В. *Использование системы дистанционного обучения «MOODLE» при обучении профессиональному иностранному языку // Открытое образование. 2013. № 4. С.91-97.*

2. Краснова, Т. И. *К вопросу об организации СРС по иностранному языку в вузе // Уровневая подготовка специалистов: государственные и международные стандарты инженерного образования: сборник трудов научно-методической конференции, 26-30 марта 2013 г., Томск / Национальный исследовательский Томский политехнический университет (ТПУ); ред. кол. А. И. Чучалин [и др.]. Томск: Изд-во ТПУ, 2013. С. 284-286.*

3. Макарова, О. А. *Модель и диагностика конкурентоспособных качеств выпускника средней школы с профильным обучением // Известия Российского государственного педагогического университета им. Герцена. 2007. № 40 (16). С. 427-432.*

4. Розанова, Я. В. *Технология ротационной модели метода смешанного обучения в неязыковом вузе // Научно-педагогический журнал Восточной Сибири Magister Dixit. 2014. № 2. С.70-76.*

5. Muxamedov G.I., Usarov J.E., *Uzluksiz pedagogik ta'lim klasteri sharoitida kompetentlik talablari va ta'lim samaradorligi imkoniyatlari. "Uzluksiz ta'lim" 2020 y, Maxsus son*

6. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Kodirov Ikrom Davronovich. (2020) "Problems of formation of learning motives in pupils", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. 8, p. 6,

7. Babaxodjayeva L.G., Usarov J.E., *Aralash ta'lim shaklini klaster yondashuvlar asosida takomillashtirishning o'ziga jihatlari, «Mug'allim hem yzliksiz bilimlendirio'» № 2/1 2021 yil, 10-13 betlar.*